

**BADIIY ADABIYOTDA TABIAT RAMZLARINING GENEZISI**

Raxima Sharipova,

Navoiy davlat pedagogika institute O`zbek adabiyoti kafedrası o`qituvchisi

**ANNOTATION**

The article is devoted to the genesis of natural symbols, the influence of these symbols on the human soul and on events taking place in society.

**Key words:** nature, symbol, labor, event, season, rain, wind, ancient, song, genesis.

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada tabiat ramzlarining genezisi, ushbu ramzlarning inson ruhiyati ifodasi sifatida yuzaga chiqishi hamda jamiyatdagi voqealarga aloqadorligi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** tabiat, ramz, mehnat, marosim, mavsum, yomg'ir, shamol, qadimiy, qo'shiq, genezis.

**Аннотация.** Статья посвящена генезису природных символов, влиянию этих символов к душе человека и к событиям происходящих в обществе.

**Ключевые слова:** природа, символ, труд, мероприятие, сезон, дождь, ветер, древний, песня, генезис.

**INTRODUCTION**

Tabiat va inson munosabati g'oyatda qadimiy bo'lishi bilan bir qatorda abadiy jarayon hamdir. Inson zoti yaratilibdiki, tabiat bag'rida u bilan hamohang umrguzaronlik qiladi. Umrining yaxshi damlarini ham, yomon fursatlarini ham ona tabiat bilan hamnafas o'tkazadi. Tabiat – doimiy tiriklik saltanati, mangu hayot tantanasi ekan, bitmas-tuganmas go'zallik va g'aroyib sir-sinoatlar dunyosi va adabiyotning ilhom manbai bo'lib qolaveradi. U boqiy ekan, odam dilini nozik his-tuyg'ular, quyoshday porloq, zaminday ardoqli fikr-u g'oyalar tark etmaydi.

Tabiat ramzlari xalq og'zaki ijodi va yozma adabiy manbalar bag'ridan munosib joy olgan. Ularni o'z asarlari tarkibida qo'llangan har bir ijodkor muayyan g'oyaviy maqsadni ro'yobga chiqarish, qahramonlar ruhiy dunyosi, fikr va kechinmalarini ifodalashda bu ramzlardan unumli foydalanishga harakat qilgan. Shu sababli xalq og'zaki ijodi namunalari va yozma adabiy manbalarda tabiat ramzlari bilan bog'liq falsafiy-ijtimoiy mavzular juda katta ahamiyatga ega. Masalaning ana shu jihatini ochish maqsadida Sharq xalqlari adabiyoti xazinasidagi bir necha nodir manbalarga murojaat qilish lozim topildi.

Har bir davr adabiyotining o'ziga xos betakror xususiyatlari mavjud bo'lib, u ana shu xususiyatlari bilan o'zidan oldingi va keyingi davrlar she'riyatidan farqlanib turadi. Har bir davr she'riyati esa tasviriy – ifodaviy vositalarga boyligi, voqelikni estetik idrok etishdagi ramziylikning kuchayishi, badiiy ko'chimlarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Mazkur ramzlar, ko'chimlar inson ruhiyatining ifodasi hamda jamiyatdagi ba'zi bir kamchiliklarni fosh

qilish, kemptik o`rinlarga ishora, ijtimoiy-siyosiy g`alayonlarni fosh qilish vositasi sifatida ham yuzaga chiqadi.

Badiiy adabiyotning eng qadimgi shakli hisoblangan xalq og`zaki ijodida ham bir qancha tabiat ramzlari uchraydi. Muallifning noma`lumligi, yillar mobaynida turli aytimchilar tomonidan sayqallanib, takomillashib mukammal shaklga ega bo`lishi, xalq og`zaki ijodi namunalariga xos asosiy belgilardir. Og`zaki ijod har qanday yozma adabiyotga tayanch vazifasini bajargan. Xalq yaratgan asarlar o`zining g`oyaviyligi, chuqur xalqchilligi, til boyligi va badiiyligi bilan ajralib turadi. Xalq og`zaki ijodining barcha janrlarida tabiat ramzlari uchraydi. Xususan qor, bulut, shamol, yomg`ir obrazining genezisiga nazar tashlaydigan bo`lsak, ular juda qadimdan kishilar ruhiyatining ifodasi sifatida badiiy adabiyot bag`rida yashab kelgan. Xalqning iste`dodli vakillari juda uzoq asrlar davomida o`zlarining nozik va murakkab tuyg`ularini, kechinmalarini qo`shiqqa aylantirganlar. O`zbek xalq qo`shiqlari serqirra va sertarmoqdir. Xalqimiz tomonidan mehnatga doir, marosim va mavsumlarga oid minglab lirik qo`shiqlar yaratilgan. Masalan:

Havoni bulut bosdi,

Oyni ko`rmasam bo`lmas.

Yuraklarni g`am bosdi,

Yorni ko`rmasam bo`lmas.

Bunday lirik qo`shiqlarda insonlarning ruhiy olami, ishqiy kechinmalari aks etadi, ular kasb, payt, o`rin tanlamaydi. Yuqoridagi xalq qo`shig`ida bulut asosiy poetik obraz bo`lib, u orqali kishining ichki kechinmalari qisqa va aniq, marjondek satrlarga tizilgan. Osmonni bulut qoplasa, oyu quyosh uning ortida qolib ketadi, tabiiyki, bulutli havo inson ruhiyatiga ham ta`sir qilib, yurakni qisilishi orqali g`amgin kayfiyatni uyg`otadi. Osmonni bulut qoplashi oshiqning ko`ngliga ham g`am solib, yorning vaslini istayotganidan darak beradi. Bulut tabiatga va oshiq qalbiga g`am olib keluvchi ramz sifatida satrlar bag`ridan joy olgan. Bunday xalq qo`shiqlari juda qadimiyligi, sonining ko`pligi va badiiy saviyasining yuksakligi bilan ajralib turadi. Ularning orasida tabiat ramzlariga bag`ishlangan she`rlar talaygina. Masalan, xalq qo`shiqlarida juda ko`p uchraydigan qor poetik obrazi ham umrning o`tishi, sochlarning oqarishi, qish-qirovli kunlar, tabiat va inson tanasidagi sovuqlik yoshlikdagi qaynoq qonning quyilishi, sovushi) ramzi sifatida yuzaga chiqqan. Qora qoshlining hajrida oshiqning qaynoq yoshligi o`tib ketdi, qor tagida qolgan va unitilgan narsa kabi endi uni topish juda mushkul:

Qora- qora qoshligim,

Uzun- uzun sochligim.

Qora qoshni deb yurib,

Qorda qoldi yoshligim.

Xalq og`zaki ijodida hajviy qo`shiqlar salmog`i ham talaygina. Jamiyatning yuqori qatlami hisoblangan ochko`z boylar, xon, firibgar qozi-yu eshonlar oddiy aholi haq-huquqlarini doim kamsitib kelishgan. Ularning jabr va zulmlariga qarshi kurasholmagan jabrdiyda aholi qatlami faqat she`rlar to`qib, ularni hajv ostiga olishgan va shu jarayonda hajviy qo`shiqlar paydo bo`lgan.

Bunday qo`shiqlarda nafaqat mansabdor shaxslarning salbiy xislatlari, balki jabrdiyda aholi kechinma va dardlari ham tilga olingan.

Ko'prikdan ko'rinar otining boshi,  
Yomg'irdek yog'adi ko'zining yoshi.  
Elu xalqning kulfat doim yo'ldoshi,  
O'lar bo'ldik bu xonlarning dastidan (O'sha manba, 152-bet).

Ko'prikdan ko'ringan xonning otini boshi ko'rinishi bilan keng dalada mehnat qilayotgan dehqonlarning ko'zlaridan yoshlari yomg'ir kabi yog'adi. Bu misralarda ta'kidlanganidek, dehqonning ko'z yoshi yomg'irning yog'ishiga o'xshatilmoqda. Badiiy adabiyotda ko'z yoshining yomg'irga, sel bo'lib oqayotga daryo suviga mengzalishi doimiy hodisadir. Ammo bu o'rinda yomg'irga o'xshatilgan ko'z yoshlari dehqonlarning og'ir ahvolidan, ularning hukmron qatlamdan noroziligidan dalolatdir. Yomg'ir rizq, qut-baraka ramzi sifatida sifatida badiiy adabiyot bag'ridan keng o'rin egallagan. Ammo yuqoridagi satrlarda yomg'ir – achchiq qismat, dardu alam ramzi sifatida satrlarga jilo bermoqda.

Sharq she'riyati tarixiga – mumtoz asarlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu o'ziga xos tabiat qomusi sifatida kishini hayratga soladi. Mahmud Qoshg'ariyning “Devon-ul lug'otit turk” asaridagi to'rtliklardan tortib, Furqat yoki Avazgacha bo'lgan hamma mumtoz adabiyotimiz vakillarining ijodida u yoki bu shaklda tabiat ramzlari betakror adabiy durdonalarning xazinasini tahkil etadi. Xususan qor, yomg'ir, bulut, chaqmoq, bahor, yoz, kuz, qish kabi tabiat ramzlarining barchasiga duch kelamiz.

Sharq adabiyotida tabiat ramzlarining genezisi forsiy adabiyotning noyob namunasi “Shohnoma”ga ham taqaladi. Sharq adabiyoti xazinasidan “Shohnoma”ga teng keluvchi yirik va qadimiy asarni topish mushkul. Abulqosim Firdavsiy qalamiga mansub mazkur ma'naviy xazina necha asrlardan buyon jahon madaniyatining ulkan badiiy durdonasi sifatida adabiyot ixlosmandlari qalbiga g'ulg'ula solib kelayotir. Oltmish ming baytdan tarkib topuvchi “Shohnoma”da tabiat ramzlari va manzaralaridan iborat lavhalarini ko'plab uchratish mumkin. Firdavsiy “Shohnoma”sining to'qqiz jildlik nisbatan tugal nashrini ko'zdan kechirish natijasida shu narsa ayon bo'ldiki, shoir asarida tabiat ramzlariga ko'proq jangu jadal voqealari bilan uyg'un holda murojaat qilgan.

Qaysidir bir sulolaning taxt tepasiga kelishi – g'alabasi bilan bog'liq jihatlarni yoritishda Firdavsiy ko'proq Bahor – shodu xurramlik fasliga murojaat qiladi. Bu, ayniqsa, Eron shohlaridan Kaykovusning taxtga o'tirishi munosabati bilan aloqador voqealar tasvir-tafsilotida yaqqol nazarga tashlanadi. Shuningdek, ulug' shoirning dunyo, charx, inson, uning taqdiru qismati haqidagi falsafiy-irfoniy mulohazalari singdirilgan satrlarda bahoriy uyg'onish fazilatlarini, maysalar, tiriklik suvi – yomg'irga uyg'un lavhalar aks ettirilgan:

Daraxti baro'mand chun shud baland,  
Gar edun, ki oyad bar o' - bar gazand,  
Shavad barg pajmurdavu bex sust,  
Sarash so'i pasti giroyad naxust.  
Chu az choygah bugsilad poi xesh,  
Ba shoxi navoin dihad choi xesh.  
Mar o'ro suporad gulu bargu bog',  
Bahore ba kirdori ravshan charog'.

“Shohnoma” bag`ridan bunday ibratli va rangin tasvir, tabiat ramzlariga murojaatni ko`plab topishimiz mumkin. Jumladan, asarning sakkizinchi jildida No`shiravon podsholigi, uning Rum Qaysari bilan jangi, Qolinius va Antokiya shaharlarini bosib olishi voqealari badiiy ifodasida shoir uchun tabiat ramzlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Asarning “Dostoni Suyovush” bobidagi fasllardan biri “Soxtani Siyovush Gangdijro” – Siyovushning Gangdij shahrini barpo qilishi haqida bo`lib, ayni sahifalar ko`klam manzarasining o`ziga xos yuksak shoirona tasviri bilan e`tiborli. Shaharning go`zalligi, xushhavoligi, na issiq, na sovuqligi – doimiy mo`tadil havo – yomg`irli bahoriy harorat hukmronligini yoritish orqali shoir ajoyib va notakror manzara – peyzaj yaratishga erishgan. Firdavsiy “Shohnoma”si tarkibida tabiat ramzlari bilan bog`liq bunday lavhalar juda ko`p. Undagi tabiat ramzlari, manzaralari aksariyat hollarda shaharlar qiyofasi, sulolalar tarixi, shohlarning pand-nasihati tarzidagi nomalarida, jangu jadal voqealari tasvirida uchrashining guvohi bo`ldik.

Nizomiy Ganjaviy ijodida ham tabiat ramzlari goyat chuqur va go`zal talqin etilgan. Shoir tabiatning juda ko`p mo`jizalarini, undagi betakror voqea va hodisalarni odamlarga o`rnak qilib ko`rsatadi, har damda ulardan ibrat olish, zavqlanishga chaqiradi. Yil fasllarining ajoyib manzaralari, inson ruhiyati bilan bog`liq tabiat hodisalari badiiy talqinini Nizomiyning “Panj ganch” (“Besh xazina”) dostonlari misolida yaqqol ko`rish mumkin. Shoir dostonlarida Bahorga murojaat alohida ajralib turadi. Buni “Sifati bahor”, “Vasfi bahor” sarlavhalari ostida berilgan nazmiy parchalarda ravshan ko`ramiz. Badiiy so`z san`atida shodu xurramlik ramziga aylangan Bahor Nizomiy qalamida ham asar qahramonlari xushbaxtlik onlarining badiiy ifodasi uchun xizmat qilgan.

Beshlik tarkibidagi “Xusrav va Shirin” dostonining “Sifati Bahor va ayshi Xusravu Shirin” qismida shoir Bahor fasli ko`rkam ko`rinishlaridan Xusrav va Shirinning visol onlariga mos manzaralar yaratishda foydalangan. Nizomiy tasviridagi qahramonlar visolning farahbaxsh nashidasidan bahra olayotgan lahzalarda go`yo tabiat ham ularga xayrihoh: atrofdagi binafshayu lolalar, maysayu sabzalar, mushk hidini olib keluvchi sabo, sarmast va sho`x kiyiklar, gul ishqida nolish qilayotgan bulbul, chiroyli qanotlarini ko`z-ko`z qilayotgan tovus – hamma-hammasi Xusrav va Shirinning saodatli davrasiga yanada joziba, shodlik hadya etayotgandek:

Chu piri sabzpo`shi osmony  
 Zi sabza barkashad subhi chavony,  
 Chavononrovu pironro digar bor  
 Ba sarsabzy daroradsurxgulzor.  
 Baso murg`ro, ki ishqovoza gardad,  
 Baso ishq kuhan, k-on toza gardad.  
 Chu xurram shud ba Shirin choni Xusrav,  
 Chahoh mekard ahdi xurramy nav.

Nizomiy “Panch ganch”ining “Layli va Majnun” dostonidan Xazon sifatlari (“Sifati xazon”) ham muhim o`rin olgan. Bunda shoir Bahor tasvirlariga mutlaqo zid – tushkunlik, g`am-anduh, sarg`ayish, so`lish bilan uyg`un Xazon fasli xislatlarini Laylining dil iztiroblari tarzida ifodalaydi. Ushbu asarning kirish qismlaridagi baytlardayoq shoir kuzda barglarning

to'kilishini majoziy ma'noda asosiy tayanch nuqtasi – shoxidan ayrilish, uzilib tushish, xazon bo'lish holatlarini Laylining ruhiy azoblariga hamohang tasvirlaydi.

Nizomiy “Panch ganch”ining yakunlovchi dostoni “Iskandarnoma”da fasllar bilan bog'liq yanada turfarroq manzaralarga duch kelamiz. Beshlik tarkibidagi boshqa dostonlardan farqli o'laroq, bunda “Vasfi Xazon”dan tashqari “Vasfi Tobiston” va “Vasfi Zimiston”ni ham uchratish mumkin. Shoir qahramoni Iskandarning Shimol yurishlaridan qaytib Rumga azm qilganini (“Bozgashtani Iskandar az haddi Shimol ba azmi Rum”) “Vasfi Tobiston” manzarasi bilan hamohang tasvirlaydi. Ijodkor qalamida Tobiston – meva-chevalarning ayni g'arq pishgan va shakarga to'lgan pallasi sifatida ifodalanadi. Tobiston tasvirining oxiriga kelib esa Kuz kayfiyati seziladi va bu dostonidagi “Vasiyatnomai Iskandar” bobining “Vasfi Xazon” qismida jahongir hayotining oxirlab borayotgani uning vasiyatnomasi bilan aloqador tasvirlarda o'z aksini topadi. Tabiatdagi ramzlar va doston voqealari, hatto ularning nomlanishi bir-biriga uzviy bog'liq. Shoir Iskandarning umr xazonini Kuzga qiyoslasa, qahramon maktubining validasiga yetishi voqealarini Qish fasli sifatleri qiyosida tasvirlaydi. Tabiatda Qish – Zimiston kunlarida butun borliqni qora bulutlar qoplaydi – umr intihosida esa bunday dilxun manzara inson qalbiga ko'chadi, uning jismu jonini tubsiz zulmat qoplaydi...

Mumtoz asarlardagi tabiat ramzlari genezisi haqida so'z ketganda buyuk shoir Hazrat Alisher Navoiy ijodiga nazar tashlamaslikning iloji yo'q. Ulug' ijodkorning tabiat olami, yil fasllariga munosabati, muhabbati uning “Xamsa” tarkibiga kirgan dostonlarida yanada yorqin ko'zga tashlanadi. Uning biror dostoni yo'qki, shoir unda tabiat manzaralarining, fasllar xususiyatlarining, borliqqa inson ta'sirining (yoki aksincha) yangidan-yangi qirralarini ochmagan bo'lsin. “Hayratul-abror”dagi birinchi hayratda Navoiy olamining ulkan bir daraxtzor, mevazor bog'dan iborat ekanligini, go'zalligini, latofatini, uning butun borlig'i bilan inson hayotiga farah bag'ishlash uchun yaratilganligini jo'shqin va yorqin satrlarda kuylaydi. Ikkinchi hayratda Navoiy moviy osmonning kengligini, undagi jismlarning, xususan, sayyoralarning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy aniqlik bilan to'la to'kis gavdalantirishga harakat qiladi. “Hayratul-abror”da biz yilning to'rt fasli – Bahor, Yoz, Kuz va Qishning falsafiy-she'riy ta'rifi, bu fasllarning “mevasi” bo'lmish yomg'ir, qor, sirpanchiq muz, muz sumalaklari, shamol, do'l kabi tabiat hodisalari tasvirlariga duch kelamiz. Bunda, ayniqsa, Xuroson o'lkasining tabiat manzaralari, suvlari, ekinlari, geografik mavqei tasviri hayajon bilan ifodalangan bo'lib, shoirning o'z ona yurtiga muhabbatini namoyish qiladi. “Farhod va Shirin”da Navoiy yilning to'rt fasliga moslab Farhod uchun qasr qurilishini, Farhodning sehri oyna sirini bilish uchun Yunon o'lkasiga borishini, yo'lda qanday sermanzara tog'lardan, o'rmonlardan, dashtlardan o'tganini g'oyatda qiziqarli tasvirlaydi.

Shoir she'riyatida ham tasvirlardagi rang-baranglik kishini hayratga soladi, tabiat tasviri insonni cheksiz tuyg'ular olamiga yetaklaydi. Ulug' iste'dod sohibi satrlaridagi eng yaxshi bo'yoqlar tabiat qo'ynidan olingan. Masalan, Bahor butun borliqqa turli-tuman liboslar kiydiradi, dala-yu bog'lar qushlarning nag'masoz ohanglariga to'ladi, quyosh kulib, zarrin nurlar sochadi. Tiriklik suvi – yomg'ir dashtu biyobonlarni turfa ranglarga chulg'aydi. Nafaqat tabiatda, balki inson zohir va botinida ham yangilanish, mavjlanish, parishonlik, maftunlik, shaydolik kabi holatlar kuzatiladi:

Bodayu ishqu shabob ayyomiyu, fasli bahor,  
Pand netsunkim erur oshuftalig`larning chog`i.

Tabiatdagi hodisalarning barchasidan Alisher Navoiy oshiqning ziddiyatli ruhiy kechinmalarini ochib berishda mahorat bilan foydalangan. Oshiqning ruhiy va jismoniy holati tabiatdagi ramzlar, tabiiy hodisalar bilan uyg`un tarzda o`zgarib boradi.

Chindan ham insonning jismoniy-ijtimoiy faoliyatini borliqsiz, uning sehu sinoatlarisiz tasavvur etib bo`lmaganidek, tabiatni, uning daxlsizligi va istiqbolini ham insonning aralashuvisiz tasavvur etish qiyin. Inson bir umr tabiatdan moddiy, ma`naviy, ruhiy ozuqa – ibrat olib yashaydi, uning qo`ynidagina barkamollikka erishadi. Ana shu chambarchas aloqadorlik naqadar teran his qilinsa, ona tabiatga shafqat bilan ongli munosabatda bo`linsa, uning tarovati shu qadar ko`tariladi, bugungi kunda globallashib borayotgan ekologiya muammolari jamiyatga, insonga tahdid solmaydi.

### REFERENCES

1. Lirik qo`shiqlar. O`zbek xalq og`zaki ijodi. Xrestomatiya. 124-bet.
2. Lirik qo`shiqlar. O`zbek xalq og`zaki ijodi. Xrestomatiya. 144-bet.
3. Firdavsy A. Shohnoma. Iborat az 9 child. Childi 1-9. Dushanbe:Adib, 1987-1991.
4. Firdavsy A. Shohnoma. Iborat az 9 child. Childi 2. Dushanbe:Adib, 1987. 28-s.
5. Firdavsy A. Shohnoma. Iborat az 9 child. Childi 8. Dushanbe:Adib, 1987. 125-127-s.
6. Nizomii Ganjavy. Kulliyot. Dar panch child. Childi I. Xusrav va Shirin. Dushanbe:Irфон, 1982. 33-s.
7. Nizomii Ganjavy. Kulliyot. Dar panch child. Childi V. Iqbolnoma. Dushanbe:Irфон, 1984. 211-214-s.
8. A.Navoiy. MAT. 4-tom. -T:Fan,1989. 422-bet.